




# SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar-sentabr oyi  
uchun dastlabki ma'lumot)*

Sirdaryo iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-sentabr oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **516,2** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **115,7** mln. AQSh dollariga yoki **28,9** % ga ko'paydi.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI**  
(yanvar-sentabr, ming. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish surati, % da	jamiga nisbatan, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	400476,4	516203,3	<b>128,9 %</b>	x
<b>Eksport</b> 	114602,9	175628,1	<b>153,2 %</b>	100,0
 tovarlar	113607,0	173575,2	152,8	98,8
 xizmatlar	995,9	2052,9	206,1	1,2
<b>Import</b> 	285873,5	340575,2	<b>119,1 %</b>	100,0
 tovarlar	285870,9	340575,2	119,1%	100,0
 xizmatlar	2,6	0,0	0,0	0,0
<b>Saldo</b> 	-171270,5	-164947,1	x	x






Ma'lumot uchun: Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **175,6** mln. AQSh dollariga (**53,2** % ga ko'paydi) va import hajmi **340,6** mln. AQSh dollariga (**19,1** ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida - **164,9** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

### SIRDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da.)



## SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Sirdaryo viloyati tashqi savdo aylanmasi yanvar-sentabr oyida **516,2** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **28,9** mln. AQSh dollariga ko'paydi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.


Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, va Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va Avstriya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.





## 10 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-sentabr)






Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (131,4 mln. AQSh dollari), Qozog'iston (121,6 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (89,4 mln. AQSh dollari), va Afg'oniston (63,4 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Sirdaryo jahonning 60 ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAda salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (25,5 %), Qozog'iston (23,6 %), Xitoy Xalq Respublikasi (17,4 %), Afg'oniston (12,3 %), Germaniya (4,5 %), Qirg'iz Respublikasi (0,7 %) va Turkiya (3,6 %) qayd etilgan.

## SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)











Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
 Rossiya Federatsiyasi	72,4	85,2	131,4
<i>Eksport</i>	15,8	21,3	32,9
<i>Import</i>	56,6	63,9	98,5
 Qozog'iston	82,6	85,6	121,5
<i>Eksport</i>	27,4	18,8	15,5
<i>Import</i>	55,2	66,8	106,0
 Xitoy Xalq Respublikasi	118,7	71,4	89,4
<i>Eksport</i>	19,9	15,8	35,0
<i>Import</i>	98,8	55,6	54,4



# SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)




Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Afg'oniston</b>	<b>6,9</b>	<b>40,0</b>	<b>63,4</b>
 <i>Eksport</i>	6,9	40,0	63,4
<i>Import</i>	-	-	-
<b>Pokiston</b>	<b>2,3</b>	<b>2,1</b>	<b>7,0</b>
 <i>Eksport</i>	2,1	2,1	6,6
<i>Import</i>	0,2	-	0,4
<b>Litvaya</b>	<b>4,1</b>	<b>5,0</b>	<b>2,8</b>
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	4,1	5,0	2,8
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>2,6</b>	<b>2,9</b>	<b>3,7</b>
 <i>Eksport</i>	1,2	0,8	3,1
<i>Import</i>	1,4	2,1	0,6
<b>Turkiya</b>	<b>20,3</b>	<b>15,1</b>	<b>18,3</b>
 <i>Eksport</i>	2,7	1,1	7,3
<i>Import</i>	17,6	14,0	11,0
<b>Ispaniya</b>	-	-	<b>1,4</b>
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	-	1,4
<b>Germaniya</b>	<b>20,2</b>	<b>35,5</b>	<b>23,3</b>
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	20,2	35,5	23,3
<b>Tojikiston</b>	<b>4,8</b>	<b>4,1</b>	<b>3,8</b>
 <i>Eksport</i>	2,6	3,5	3,5
<i>Import</i>	2,2	0,6	0,3



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-sentabr 2021- yil)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>516 203,3</b>	<b>128,9</b>
Boyovut	20 741,2	119,7
Guliston	16 698,1	2,3 m.
Mirzaobod	17 675,0	52,1
Oqoltin	8 401,0	120,8
Sardoba	5 396,2	165,9
Sayxunobod	47 698,6	2,0 m.
Sirdaryo	127 346,0	96,6
Xovos	21 223,8	121,8
Guliston sh.	61 155,8	129,0
Shirin sh.	79 773,2	184,9
Yangiyer sh.	108 944,0	161,0

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSh dollari

**Sirdaryo - 127 346,0**

**Yangiyer sh. - 108 944,0**

**Shirin sh. - 79 773,2**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSh dollari

**Guliston – 16 698,1**

**Oqoltin – 8 401,0**

**Sardoba – 5 396,2**

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **24,7 %** ulush bilan **127 346,0** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Sardoba tumani **1,0 %** ulush bilan **5 396,2** ming AQSh dollarini tashkil etdi.







Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **52,6 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **0,3 %** ga ko'paygan.

### SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-sentabr oyida 2020-yil ulushiga nisbatan **0,3 %** ga kamayib va jami TSA'dagi ulushi **47,4 %** ni tashkil etdi.







## SIRDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2021- yil yanvar-sentabr, ming AQSh dollari)




1992- yil 4- yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) ga a'zo bo'ldi. Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-sentabr holatiga **271 549,9** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **57 408,3** ming AQSh dollariga yetgan bolsa, import **214 141,5** ming AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**48,4 %**), Qozog'iston (**44,8 %**), Qirg'iz Respublikasi (**1,4 %**), Turkmaniston (**2,4 %**) va Tojikiston (**1,4 %**) davlatlari bilan qayd etildi.




# SIRDARYO VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


(yanvar-sentabr, ming AQSh dollari, ulushi, % da)




Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



2020- yil 11- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. YOII bilan Sirdaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi **257 444,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **51 580,5** ming AQSh dollari, import hajmi esa **205 863,8** ming AQSh dollariga yetdi.





## SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI


(2021- yil yanvar-sentabr)



Joriy yilning yanvar-sentabr oyida viloyatning eksportyorlari soni **162** tani tashkil etib, ular tomonidan **175 628,1** ming AQSh dollari qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **53,2** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **100,0** % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**31,5** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**47,1** %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**2,1** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI *(yanvar-sentabr, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020- y	2021- y	2020 -y	2021- y	2020- y	2021- y
<b>Jami eksport</b>	<b>114 602,9</b>	<b>175 628,1</b>	<b>123,4</b>	<b>153,2</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	61 706,8	82 162,2	177,7	133,1	54,0	47,1
Ichimliklar va tamaki	10,7	19,0	0,0	176,5	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11 641,6	11791,2	77,4	101,3	10,2	6,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	636,9	0,0	90,0	0,0	0,6	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	4 949,1	3727,7	150,6	75,3	4,3	2,1
Sanoat tovarlari	22 174,4	54 881,7	88,9	2,4 m.	19,4	31,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1 671,9	4 783,9	94,6	2,8 m.	1,5	2,7
Turli xil tayyor buyumlar	10 815,4	16 106,7	97,9	157,4	9,5	9,2
Xizmatlar	996,0	11829,8	68,4	161,0	0,5	0,6





## SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI



Sirdaryo viloyati eksporti yanvar-sentabr oyida **175 628,1** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **61 025,2** ming AQSh dollariga ko'paydi.

### XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-sentabr)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	19677,6	91,4
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	60274,8	157,3
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	2108,2	158,3
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	30,5	61,1
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,9	47,8
Tamaki va tamaki mahsulotlari	18,0	2,0 m.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	10227,7	93,3
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	57,8	59,6
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	654,2	19,9 m.
Qog'oz massasi va makulatura	574,4	158,1
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-sentabr)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,0	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va maxsulotlar	3 034,7	75,4
Birlamchi shakilda bo'lmagan plastmassalar	158,4	57,8
Efir moylari , rezinoidlar va attorlik moddalari ; xojatxona preparatlari, polirofkalash va yuvish vositalari	5,4	2,9 m.
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	426,7	68,0
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	35923,7	2,5 m.
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar , muyna	11261,0	170,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan maxsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	6310,6	4,9 m.
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Aniq soxalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	251,0	97,1
Avtomabillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari ham)	87,9	5,9 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	3254,0	2,4 m.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	15345,3	148,3
Har xil tayyor buyumlar	640,4	3,1 m.







## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020- yilning yanvar-sentabridagi **41,4** %dan 2021- yilning yanvar-sentabrida **32,7** % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **67,3** % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-sentabr, % da)

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afg'oniston (eksport umumiy hajmining **36,3** %), Rossiya Federatsiyasi (**18,9** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**20,0** %), Pokiston (**3,8** %), Qozog'iston (**8,9** %), Turkiya (**4,2** %) va boshqa davlatlarning eksportdagi ulushi **7,8** foizni tashkil etmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-sentabr, yillar kesimida)*




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y
Afg'oniston	40 049,4	63 353,4	5,7m.	158,2	1	1
Rossiya Federatsiyasi	21 305,8	32 941,7	134,7	154,6	2	3
Xitoy Xalq Respublikasi	15 821,2	34 951,7	79,3	2,2m.	4	2
Qozog'iston	18 774,1	15 541,7	68,8	82,8	3	4
Turkiya	1 091,6	7 306,6	41,0	6,6m.	5	5
Pokiston	2 143,8	6 614,4	100,6	3,0m.	6	6
Qirg'iz Respublikasi	815,3	3 067,5	66,7	3,7m.	7	7





## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-sentabr)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>175 628,1</b>	<b>153,2</b>
Boyovut	11 535,9	102,7
Guliston	14 305,3	3,9 m.
Mirzaobod	10 353,1	83,1
Oqoltin	3 814,1	147,1
Sardoba	1 809,6	85,5
Sayxunobod	15 088,5	151,8
Sirdaryo	41 078,3	179,5
Xovos	11 753,4	2,0 m.
Guliston sh.	20 268,5	156,5
Shirin sh.	3 247,8	110,8
Yangiyer sh.	41 402,3	150,9

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSh dollari

**Yangiyer sh. - 41 402,3**

**Sirdaryo - 41 078,3**

**Guliston sh. – 20 268,5**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSh dollari

**Oqoltin – 3 814,1**

**Shirin sh. – 3 247,8**

**Sardoba – 1 809,6**

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri **23,6 %** ulush bilan **41 402,3** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Sardoba **1,0 %** ulush bilan **1 809,6** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Sirdaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **19 704,6** ming AQSh dollari qiymatli **47 548,5** tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan **1824,8** ming AQSh dollarida pasayganni kuzatilib, **8,5** % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **14 420,5** ming AQSh dollariga teng **35 364,1** tonna sabzavot, shuningdek, **5 284,2** ming AQSh dollari qiymatidagi **12 184,4** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2021- yil yanvar-sentabr)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Afg'oniston hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **24,0** % ni tashkil etdi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT

GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-sentabr)

Davlatlar	tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da *
Afg'oniston	2 831,2	2 356,8	12,0
Pokiston	3 047,4	4 878,3	24,8
Rossiya Federatsiyasi	4 313,6	2 053,7	10,4
Qozog'iston	28 362,2	5 821,9	20,5
Xitoy Xalq Respublikasi	395,0	428,8	2,3
Qirg'iz Respublikasi	278,3	260,3	1,3

\* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **2,6** m.% ga ko'paydi.)



## SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI

(2021- yil yanvar-sentabr)




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi **340 575,2** ming AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **119,1** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashina va transport asbob-uskunalari (**31,6** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**28,7** %) hamda mineral yoqilg'i, moylari va shunga o'xshash mahsulotlar (**14,6** %) hisobiga to'g'ri keldi.

### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabr import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **54 701,7** ming AQSh dollariga ko'paydi va **340 575,2** ming AQSh dollarini tashkil etdi.





## SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI *(yanvar-sentabr, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan, % da	
	2020 - y	2021 - y	2020-y	2021 -y	2020 -y	2021 -y
<b>Jami import</b>	<b>285 873,5</b>	<b>340 575,2</b>	<b>84,7</b>	<b>119,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	66 550,7	97 774,6	177,7	146,9	23,3	28,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9 598,0	11 007,7	77,4	114,7	3,4	3,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	9 368,5	49 637,4	11,5	5,2 m.	3,3	14,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	561,8	7 713,2	90,0	13,7 m.	0,2	2,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	43 155,0	36 859,2	150,6	85,4	15,1	10,8
Sanoat tovarlari	20 873,9	23 049,9	88,9	110,4	7,3	6,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	120 354,5	107 721,4	94,6	89,5	42,1	31,6
Turli xil tayyor buyumlar	15 339,1	6 811,8	97,9	44,3	5,3	2,0
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0



## SIRDARYO VILOYATI IMPORTI



Sirdaryo viloyati importi yanvar-sentabr oyida **340 575,2** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilga nisbatan **54 701,7** ming AQSh dollariga ko'paydi.

### XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-sentabr)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	77828,8	133,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	336,6	2,1m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	3450,7	21,2m.
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	8714,2	2,0m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	4 071,3	100,5
Metall rudalari va metall parchalari	621,2	40,3
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	4 805,0	143,1
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	143,4	150,1
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	42 750,2	7,4m.
Ko'mir, koks va briketlar	6 887,2	190,5
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	7 712,7	14,0m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moylaridan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	0,4	3,4



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-sentabr)




XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	2 092,1	183,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	9 007,8	37,1
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	8 474,0	279,6
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	1 014,0	75,1
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	8 706,7	145,0
Noorganik kimyo moddalari	4 491,5	126,0
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	3 822,3	70,9
Metalldan tayyorlangan buyumlar	3 427,7	68,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2 166,9	92,0
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 612,9	112,8
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	47 351,7	93,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	17 304,4	125,9
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	2 562,1	88,9
Energiya generatori mashinalari va asbob -uskunalar	24 012,2	103,3
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3746,6	148,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1573,8	18,8
Har xil tayyor buyumlar	899,1	190,9






# MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-sentabr oyi yakuni bo'yicha Sirdaryo viloyati tomonidan **50** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Qozog'iston, Turkiya, Avstriya va Turkmaniston) jami importning **91,1 %** ulushini tashkil qildi, bu **310 355,3** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y
Rossiya Federatsiyasi	63 927,5	98 502,2	112,9	154,1	2	2
Qozog'iston	66 806,1	106 020,3	120,9	158,7	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	55 579,1	54 473,7	56,3	98,0	3	3
Avstriya	9 191,2	10 890,2	66,9	118,5	7	6
Turkiya	14 038,2	11 021,6	79,4	78,5	5	5
Germaniya	35 448,9	23 178,3	175,1	65,4	4	4
Turkmaniston	12 934,7	6 269,1	138,5	48,5	6	7

## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2020- yil yanvar-sentabr)



	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>340 575,2</b>	<b>119,2</b>
Boyovut	9 205,3	150,9
Guliston	2 392,8	68,6
Mirzaobod	7 321,9	34,0
Oqoltin	4 586,9	105,2
Sardoba	3 586,6	3,1 m.
Sayxunobod	32 610,1	2,3 m.
Sirdaryo	86 268,0	79,2
Xovos	9 470,8	81,3
Guliston sh.	40 887,3	118,6
Shirin sh.	76 525,4	190,3
Yangiyer sh.	67 541,7	167,9

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSh dollari

**Sirdaryo - 86 268,0**

**Shirin sh. - 76 525,4**

**Yangiyer sh- 67 541,7**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSh dollari

**Oqoltin – 4 586,6**

**Sardoba – 3 586,6**

**Guliston – 2 392,8**

Viloyatda importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo **25,3** % ulush bilan **86 268,0** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda importi tarkibida eng quyi ulushni Guliston tumani **0,7** % ulush bilan **2392,8** ming AQSh dollarini tashkil etdi.






## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2021- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunalari hajmi **107 721,4** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,5** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **31,6** % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalar asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

### MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HANKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-sentabr)



Mashina va transport uskunalari importi hajmining ko'payishiga energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar (**102,8** %), shuningdek, elektr mashinalari, apparatlar va asboblar, boshqa joyda tasniflanmagan (**141,3** %) importi ko'payishi bevosita ta'sir qilgan.

## SANOAT TOVARLARI IMPORTI




2021- yil yanvar-sentabr oyida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **23 049,9** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,4** foizga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **6,8** % ga yetdi.

### SANOAT MAHULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-sentabr)



#### Rossiya Federatsiyasi

12 880,4 ming. AQSh dollari  
ulushi – 55,9 %



#### Xitoy Xalq Respublikasi

4262,0 ming. AQSh dollari  
ulushi – 18,5 %



#### Qozog'iston

2423,6 ming. AQSh dollari  
ulushi – 10,5 %



#### Latviya

892,4 ming. AQSh dollari  
ulushi – 3,9 %



Sanoat tovarlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (**10290,8** ming AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**3427,7** ming AQSh dollari), va ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan maxsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**2 166,9** ming AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.: (67) 236 86 34

